

**“O‘zmetkombinat” AJda 2026-yil 1-yarim yilligi uchun korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining amal qilish haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. “O‘zmetkombinat” AJning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot

“O‘zmetkombinat” AJda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora–tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi, hisobot ilova qilinadi.

Hisobot davrida korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish va natijalari yuzasidan soha xodimlari o‘rtasida Kombinat Boshqaruv raisi-Bosh direktor boshchiligidagi korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 2 ta kengaytirilgan muhokama uchrashuvlar tashkil etilgan.

“O‘zmetkombinat” AJda korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefonlari va telegram bot kanali va sohada amalga oshirilayotgan ishlar rasmiy veb–saytning “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifasida yoritib borildi.

Kombinat Boshqaruv Raisi-Bosh direktor, o‘rinbosarlari va departament direktorlarning sohaga oid 14 ta maqolalari “Metallurg Minbari va “Za Metall” gazetalarida chop etilib, ushbu maqolalar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun davra suhbatlari o‘tkazildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan barcha ichki me‘yoriy hujjatlar elektron shaklda axborot olish uchun Kombinatning rasmiy veb–saytida joylashtirilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki me‘yoriy hujjatlar bilan Kombinat xodimlari tanishtirilgan va tegishli bayonnomalar rasmiylashtirilgan, hisobot davrida yangi ishga qabul qilingan xodimlarga seminarlar tashkillashtirilib Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki me‘yoriy hujjatlar bilan tanishtirilgan.

III. Korrupsiyaviy xavf–xatarlarni baholash.

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida joriy yilning mart oyida Kombinatning 64 ta funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o‘tkazildi. Audit jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari hamda markaziy apparatidagi barcha lavozimlar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida “O‘zmetkombinat” AJning xavf-xatarlar xaritasi tuzildi. Ushbu xaritada, Kombinatning 19 ta funktsiyalarda korrupsiya xavfi “yuqori”, 34 tasida “o‘rta” va 11 tasida “past” ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, Kombinatning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati va “O‘zmetkombinat” AJ, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi shakllantirildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonunning 18-moddasiga ko‘ra Kombinatning 3 450 nafar boshqaruv va ishchi xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi yillik deklaratsiyalar <https://my.uzbeksteel.uz> saytida yaratilgan maxsus ilova orqali elektron shaklda to‘ldirilib, elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlandi.

To‘ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda 461 nafar xodimlarning faoliyatida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi aniqlanib, bartaraf etish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 17 nafar boshqaruv xodimlari jami 27 ta tadbirkorlik subyektlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga ega ekanligi yoki unda rahbar lavozimida faoliyat yuritib kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Hozirda mazkur holatlarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

Bundan tashqari, kombinat xodimlari orasida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish, ularning huquqiy tushunchasini oshirish hamda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan jami 15 ta seminar va o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Kombinatsion xo'jalik shartnomalariga kiritish.

Hisobot davrida umumiy hisobda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida 1 183 ta shartnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan 770 tasi elektron do'kon orqali, 44 ta boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, 90 ta taklif so'rov, 8 ta kichik qiymatli xarid, 128 ta to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, 86 ta spot shartnomalar va 57 ta eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirilgan shartnomalar. Kombinatsion tomonidan tuzilgan barcha xo'jalik shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha shartlar kiritilmoqda.

Kontragentlarni tekshirish.

Hisobot davrida "O'zmetkombinat" AJning 426 ta amaldagi va potentsial kontragentlarining ishonchliligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi va xalqaro, G'arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan 8 ta holatlar aniqlandi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlar (*solliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxona yoki faoliyati to'xtatilganligi*), manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, uning ofshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshirildi.

Ishga kiruvchi nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar.

Kombinatda hisobot davrida 658 ta ishga kiruvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirilgan.

Ishga kiruvchi nomzodlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining 5.13, 5.14, 5.15, 5.16, 5.17, 5.18. bandlarida korrupsiyaga qarshi bandlari qo'shilgan.

Ichki audit xizmati hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan asosiy vositalar xaridning qonuniyligi hamda asosiligi bo'yicha berilgan xulosalar.

"O'zmetkombinat" AJda 2026 yil 1 mayda 559 i/ch-sonli "Asosiy vositalar xaridini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash va komplayens nazoratini kuchaytirish to'g'risida"gi buyruq qabul qilingan. Hisobot davrida Komplayens xizmati hamda Ichki audit xizmati asosiy vositalar xaridning qonuniyligi hamda asosiligi bo'yicha 30 ta xulosa berilgan.

V. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

Hisobot davrida "O'zmetkombinat" AJda tashkil etilgan aloqa kanallari orqali tovarlar, asbob-uskunalar va materiallarni qabul qilish jarayonida ishchi guruh a'zolariga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmaslik, sun'iy kechiktirishlarning mavjudligi, jarayonning ochiq va shaffof o'tkazilmasligi, shuningdek, ishchi guruh a'zolari qabul qilish dalolatnomasini imzolashni kechiktirish orqali moddiy manfaatdor bo'lish holatlari yuzasidan kelib tushgan murojaat asosida Komplayens monitoring o'rganish o'tkazilishi tayinlandi.

Shuningdek, YTT "Sharipov Baxodur Baxromovich"ning murojaati asosida "O'zmetkombinat" AJga 5 000 dona himoya ko'zoynagi yetkazib berish bo'yicha o'tkazilgan xarid yakuni bo'yicha olib kelingan mahsulot shaxsiy himoya vositalari va boshqa vositalarni sifatini tekshirish bo'yicha komissiya tomonidan nomuvofiq deb topilganligi holatlarini asosililigini, shuningdek, ushbu mahsulotni xarid qilish jarayoniga mas'ul bo'lgan mansabdor va mas'ul xodimlarning xatti-harakatlarida korrupsion yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligini o'rganish yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

2026 yil 6 mayda Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti video kuzatuv bo'limi operatori D.Xadjimuradovning murojaatida Korporativ xavfsizlik va resurslarni

himoya qilish departamenti Videokuzatuv bo'limi boshlig'i L.Yu.Mamasodiqovani xatti-harakatlaridan norozi bo'lib Boshqaruv raisi- Bosh direktorga qilgan 2026 yil 6 maydagi k/r 2/147-sonli murojaatida keltirilgan holatlarni to'liq, xolisona va har tomonlama o'rganish, xodimlarga nisbatan ehtimoliy bosim, haqorat, kamsitish, o'z vakolatini suiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsion holatlar mavjudligi hamda mehnat munosabatlarida xizmat odobi va ichki tartib-qoidalariga rioya etilishi holatlariga huquqiy baho berish maqsadida xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

2026 yil 22 may kuni Mehnat muhofazasi bo'limi muhandisi X.X.Tashmatovning 2m/180-sonli, 25 may kuni AJ Sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i G.X.Toshmatovanning k/r 2m/175-sonli, 2 iyun kuni Mehnat muhofazasi bo'limi yetakchi muhandisi A.X.Rustamovlarning k/r 2m/179-sonli murojaatlarida keltirilgan holatlarni to'liq va har tomonlama o'rganish maqsadida xizmat tekshiruvi tayinlandi.

VI. “O'zmetkombinat” AJda aniqlangan qoidabuzarliklar va xodimlarga qo'llanilgan ta'sir choralari.

Hisobot davrida Kombinatning Sotib olishlar bo'yicha boshqarmasining xaridlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassisi U.Y.Raximov tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida Kombinat mablag'larini maqsadsiz sarflanishiga olib keluvchi xatti-harakatlarni sodir etganligi holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan natijasida xodimga “hayfsan” intizomiy jazosi tayinlangan va tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lmagan lavozimga o'tkazish taklif berilgan.

“O'zmetkombinat” AJ ishchi-xodimlari ish haqqidan 2024-2025 yillar davomida Kasaba uyushmasi qo'mitasiga a'zolik badallarini ushlab qolinishini qonuniyligi va qo'mitaga o'tkazib berilgan mablag'larning asosiligi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan, natijasida ishchi-xodimlarning oylik ish haqqidan ularning roziligisiz kasaba uyushmasiga a'zolik badallarini ushlab qolinishiga yo'l qo'ygan javobgar mas'ul xodimlarga qat'iy ogohlantirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Olmaliq ixtisoslashtirilgan prokuraturasi tomonidan “O'zmetkombinat” AJga kelib tushgan 2026 yil 31 yanvardagi 15/06-26-sonli xizmat tekshiruvi o'tkazish haqidagi Taqdimnomasi ijrosini ta'minlash maqsadida xizmat tekshiruvi o'tkazildi, natijasida yuridik departamenti Talabnoma-da'vo ishlari bo'limi boshlig'i N.I.Radjabovga xizmat intizomini kuchaytirish yuzasidan ogohlantirish berilgan.

2023-2026 yillar davomida “O'zmetkombinat” AJda hisoblangan tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi ta'til to'lovlarini mavjud normativ hujjatlar asosida to'g'ri hisoblanganligi hamda ortiqcha hisoblangan to'lovlarni xodimlarning ish haqqi pullaridan ushlab qolinishini asosiligi o'rganish yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan, natijasida xodimlarning ish haqqidan ushlab qolingani 633 558,2 ming so'm mablag'lar Mehnat kodeksining 269-moddasi talablariga zid ravishda amalga oshirilganligi aniqlangan. Xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan Bosh buxgalter B.Eshonxo'jayev va Ish haqini hisobga olish bo'yicha guruh oliy toifali buxgalteri A.Parpievlarga ogohlantirish berilgan.

“O'zmetkombinat” AJda 5 000 dona himoya ko'zoynagi yetkazib berish bo'yicha o'tkazilgan xarid yakuni bo'yicha g'olib deb topilgan korxona YATT “Sharipov Baxodur Baxramovich” hamda Kombinat o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida olib kelingan mahsulotni himoya vositalarni sifatini tekshirish bo'yicha komissiya tomonidan nomuvofiq deb topilganligi holatini asosiligidini, shuningdek, ushbu mahsulotni xarid qilish jarayoniga mas'ul bo'lgan mansabdor va mas'ul xodimlarning xatti-harakatlarida korrupsion yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligini o'rganish yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan, natijasida himoya vositalari sifatini tekshirish bo'yicha komissiyaga ogohlantirish berilgan, Sotib olishlar bo'yicha boshqarmasi strategik bo'limi uskunalar bilan ta'minlash bo'yicha guruhi xaridlarni tashkil etish bo'yicha yetakchi mutaxassisi X.A.Aripov va Sotib olishlar bo'yicha boshqarmasi operatsion bo'limi moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha guruhi xaridlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassisi S.X.Tuychiyevaga hayfsan intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan.

Kombinat hududiga joriy yilning 16, 19 va 21 may kunlari “Farg'ona-IQM” filialidan kirib kelgan jami 194 tonna qora metall parchalari ifloslanish darajasi yuqori chiqqanligi sababli kombinatga yetkazilgan zarar miqdori, bunga sababchi bo'lgan va aloqador mansabdor va mas'ul

shaxslarni aniqlash, kombinat manfaatlariga zarar yetkazishga bo'lgan boshqa urinishlar, o'z vakolatini suiiste'mol qilish hamda korrupsion yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. "O'zmetkombinat" AJ Ikkilamchi qora metallar departamenti "Farg'ona IQM" filiali Farg'ona uchastkasidan kombinatga vagonlarga ortilgan holda yuborilgan qora metal parchalari orasiga qasddan "okalina" yuklab yuborilganligi natijasida kombinatga zarar yetkazilganligi yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi dalolatnomasi va to'plangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga huquqiy baho berishlik uchun yuborilgan.

D.Xadjimuradovanning murojaatida bayon etilgan holatlar, shuningdek, Videokuzatuv bo'limi boshlig'i L.Y.Mamasodiqovanning faoliyatida o'z vakolatini suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsion holatlarning mavjudligi hamda mehnat munosabatlarida xizmat odobi va ichki tartib-qoidalariga rioya etilishi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan, natijasida videokuzatuv bo'limi boshlig'i L.Y.Mamasodiqovaga, videokuzatuv bo'limi operatorlari M.Farmanovaga va D.Xadjimuratovaga "O'zmetkombinat" AJ ishchi-xodimlarning odob-axloq qoidalari talablarida ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni sodir etganligi uchun o'rtacha oylik ish xaqining 30% miqdorida jarima solish intizomiy jazo chorasi qo'llanishi belgilangan.

VII. Xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik tamoyilini shakllantirish maqsadida o'tkazilgan profilaktik tadbirlar:

"O'zmetkombinat" AJda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan ishlar Kombinatning "Korrupsiyaga qarshi Siyosati", "Odob axloq Kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" va "O'zmetkombinat" AJda sovg'alar berish va qabul qilish, biznes mehmondo'stlik va vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha Siyosati" talablari asosida tushuntirish profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Hisobot davrida 15 ta umumiy o'qitish seminarlari tashkil etilib, unda 244 nafar ijro apparati va tarkibiy bo'linmalarining xodimlari qatnashdilar.

Shuningdek, 2 ta davra suhbatlari o'tkazildi, davra suhbatlari 35 nafar xodimlar qatnashishdi.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalarida Xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 5 ta profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

"O'zmetkombinat" AJda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi elektron platformasida tashkil etilgan "Davlat xizmatida halollikni ta'minlash" mavzusidagi 24 soatlik maxsus o'quv kursida markaziy apparatdan 45 nafar xodim, hududiy bo'linmalardan 1 nafar xodim, tizim osti tashkilotlaridan 4 nafar xodim o'qitildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi elektron platformasida tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali ishlashini ta'minlash" maxsus chuqurlashtirilgan 36 soatlik o'quv kursida 2 nafar xodim o'qitildi.

VIII. "O'zmetkombinat" AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarini bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi.

Kombinat markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalari va hududiy filiallarida aniqlangan korrupsiogen omillarni inobatga olgan holda, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida takliflar berish:

- tizimli ravishda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, shu jumladan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqilishini takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori talablariga asosan, tashkilotning har bir funksiyasini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan tahlil qilib borish, har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rib borilishi;

- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoring hamda ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazib borilishini hamda korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga nisbatan ta'sirchan choralar qo'llanilishini ta'minlash;

- Kombinatda korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovnomalar o'tkazish;

- korrupsiyaga oid murojaatlarni adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora tadbirlarda aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.